



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

SSSRNI O'ZBEKISTONDAGI DINIY TASHKILOTLARGA QARSHI KURASHI AVJ OLGAN DAVRIDA VAQF BOSH BOSHQARMASI FAOLIYATIGA CHEK QO'YILISHI

Aslonova Niginaxon Akmal qizi

Navoiy davlat Pedagogika insitituti 2-kurs magistranti.

Annotatsiya: *Maqolada XX asrning 20-30-yillarida bolsheviklarning O'zbekistondagi diniy tashkilotlarga qarshi kurashi avj olgan davrda Vaqf Bosh Boshqarmasining tugatilishi tasvirlangan.*

Kalit so'zlar: *vaqf mulklari, kommunist, "xudosizlar uyushmasi", xujum kompartiyasi, ruhoniy, Markaziy Ijroiya Qo'mita.*

KIRISH

1925-yilning 24-29-yanvarida O'zbekiston vaqf xodimlarining maxsus anjumanida Vaqf Bosh Boshqarmasining faoliyati haqida O.Oxunov nutq so'zlaydi. Anjuman ishtirokchilari "Kommunistik jamiyatda vaqf va uning muassasalari mavjud bo'lishi shart emas, lekin, o'tish davrida sharqda diniy asoratlar omma orasida yashovchanligini, Sovet hukumatining diniy aqidalarga qarshi kurash quroliga ega bo'lish hamda madaniylik darajasini ko'tarish va O'zbekistonda ijtimoiy farovonlikni ta'minlash uchun vaqtincha saqlash kerak"- deb hisobladi.

Vaqfchilarning respublika anjumanidan so'ng 1925-1926-o'quv yilida vaqf mablag'lari hisobidan O'zbekiston SSRda viloyatlari tuman va uyezdlarida, boshlang'ich ta'lim olgan erkak va ayol o'qituvchilari haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

VAQF MABLAG'LARI HISOBIDAN AYOLLARGA TA'LIM BERISH

Ko'plab shahar , uyezd va qishloqlarda o'quv muassasalarining vaqf mablag'i hisobidan faoliyat yuritishiga yetarli e'tibor qaratilmagan . Hatto Marg'ilon , Kattaqo'rg'on, xo'jand, G'ijduvon ,Behbudiy, Gurlan, Urganch kabi shahar va tumanlarda birorta ham vaqf mablag'i hisobidan faoliyat ko'rsatuvch ayollar o'quv muassasalari mavjud emasligi, shuningdek Respublika bo'yicha qishloq tipidagi ayollar o'quv maskanlari faqatgina Toshkent va Qo'qon uyezdlarida ish yuritayotganligini ko'ramiz. Bundan xulosa shuki, ayollarning yangi usul maktablarida tehsil olishi juda past darajada bo'lgan. Shuningdek sovet hokimiyatining dastlabki yillarida vaqf mulklarining musodara qilinishi vaqflarga tegishli ko'plab binolarni vayrona holatga keltirib qo'ygan edi. Mablag'ning yo'qligi keyinchalik vaqflar qaytarilgan bo'lsa ham, tiklab olish uchun vaqf zarurligi ko'plab o'quv muassasalarining bo'sh yotishiga sabab bo'lgan.

1925-1926 o'quv yilida vaqf mulklari hisobidan kelgan daromad evaziga aholini o'qitish madaniy-ma'rifiy darajasiniko'tarish uchun vaqflarga tegishli bo'lgan



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

muassasalarni ta'mirlash zarurati tug'iladi. Shuning uchun O'zbekiston SSR XKS. Xalq maorif kommissarligi qoshidagi vaqf bosh boshqarmasi ahvoli to'g'risida maxsus qaror qabul qilib (1925 yil , noyabr), unga ko'ra mahalliy vaqf bo'limlariga madaniy–ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan binolarni ta'mirlash uchun ijarachilar bilan 10 ming so'mlik, pudratchi va quruvchilolar bilan 5 ming so'mlik miqdorda shartnoma imzolash va xarajat qilish huquqni beradi . Lekin barcha shartnoma va daromadlarni amalga oshirish Vaqf Bosh Boshqarmasi qo'lida bo'lib, u O'zbekiston SSR XKS tomonidan qat'iy nazorat ostiga olinadigan bo'ldi.

Vaqf mulklaridan foydalanish, diniy muassasa va tashkilotlar faoliyatini vaqf mablag'lari hisobidan yuritish uzoqqa cho'zilmadi. 1927-yilda O'zbekiston Kompartiyasining III syezdi "Din va dinga munosabat" masalasida ikkita revolutsiya qabul qilinib, ushbu revolutsiyalar "partiya a'zolari ichidagi yaramas hollar va siyosiy oqartuv ishlari" deb nomlandi .¹

Ushbu revolutsiyalarda dinga qarshi tashviqot masalasi keskin qilib qo'yilgan bo'lib, avvalo, faollar ichida diniy maishiy urf-odatlariga (xatna to'yi ,diniy dafn marosimlari, nikoh o'qitish va hk) qarshi partiya ichida keng kurash olib borishi lozim.... Yerli xalq orasida ham, shuningdek yevropaliklar ichida hamdinga qarshi tashviqotni avj oldirish zarur deb hisoblansin..... maktab,klub, qizil choyxona, dexqonlar uyi, agronomiya markazlari va "Xudosizlar ittifoqi"ning yacheykalari dinga qarshi tashviqotning markaziga aylanishi zarur"² kabi ochiqdan-ochiq kurash va qatag'onga da'vat qiluvchi fikrlar bayon qilingan.

DINGA QARSHI KURASH."XUDOSIZLAR JAMIYATI"

1923-yildan 1928 yilga qadar RKP(b) va O'zbekiston SSR kompartiyasi diniy muassasa tashkilotlarga munosabatida , dinga ishonuvchining diniy hislarini haqorat qilmaslikka alohida e'tibor berish zarurligi kabi ehtiyotkorlik siyosatidan, keskin kurash olib borish siyosiy yo'lga o'tishlik uchun uzoq vaqt zarur bo'lmadi.

O'zRKP(b)ning II syezdi Respublika miqyosida din va diniy muassasalarga qarshi ommaviy ochiq kurash hamda qatag'on davrini boshlabberdi. 1927-yil xotin-qizlarni ozodlikga chiqarish "Xujum"kompartiyasi davrida dindorlarni xurofot va eskilik tarafdori sifatida ta'qib qilish yanada avj oldirildi.

1927- yil 13-15-iyunda Samarqand shahrida O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining IV plenumi bo'lib o'tadi. Unda O'ZKP Markaziy Qo'mitasining ma'sul kotibi Akmal Ikromov "Ruxoniylar va maktab haqida "³ ma'ruza qiladi. Plenumning ushbu yig'ilishida Respublikada diniy muassasalar faoliyatini cheklash, musulmon maktab va madrasalarni tugatish to'g'risidagi bosh yo'nalishni belgilab beruvchi qaror qabul qilindi.

¹ Qonun,din, Cherkov. T.:, 1987-B.54-55.

² O'zbekiston Kommunistik partiyasi syezdlar, revolutsiya va qarorlari.T.:1957.I tom-S189-251.

³ Коммунистическая партия Узбекистана в резолюциях и решениях съездов и пленумов ЦК.Т.1987. _С.304-305.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Ushbu qarordan kelib chiqib , joylarda daxriylik kurashini kuchaytirish, avvalo targ'ib tashviqotni keng ko'lamda olib boruvchi muassasalar faoliyatiga e'tibor qaratish zarurligiga ahamiyat bera boshlandi.

O'zkompartiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasining targ'ibot va tashviqot bo'limi zimmasiga bu borada keng ko'lamli ishlarni olib borish uchun katta vazifalar yuklatildi. Ushbu bo'limning 1927-yil 20- noyabrda o'tkazgan yig'ilishi №2 bayonnomasi qarorida quyidagi talab qo'yiladi :

"Xudosizlar ittifoqining ustav loyihasi ko'rib chiqilsin va tasdiqlansin. Bir hafta ichida Xudosizlar ittifoqi uyushmasining nomi o'zbek tilida keng xalq ommasiga tushunarli tarzda nomlanib , matbuotda e'lon qilinsin. Ushbu vazifani bajarilishi o'rtoq Batuga topshirilsin".

1928-yil fevral oyida O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Ijroiya Qo'mitasi targ'ibot-tashviqot bo'limining maxsus qarori bilan respublikada dinga qarshi faol kurashuvchan "Xudosizlar" jurnalining o'zbek tilidagi sonini chop ettirish davr talabi ekanligi qayd qilinadi. Jumladan , qarorda "dastlabki bosqichda "Xudosizlar" jurnali bir oyda bir marta , 300 nusxada , 3-4 bosma taboq hajmida arab alifbosida chop etilsin"- deb ta'kidlanadi.

ADABIYOT VA MANBALAR:

1. Qonun,din, Cherkov. T.:, 1987-B.54-55.
2. O'zbekiston Kommunistik partiyasi syezdlar, revolutsiya va qarorlari.T.:1957.I tom-S189-251.
3. Коммунистическая партия Узбекистана в резолюциях и решениях съездов и пленумов ЦК.Т.1987. _С.304-305.
4. Алексеев В. Иллюзия и догмы.М.:Политиздат,1991.-С.275.
5. Наука и религия.1985.№12.-С.19.